XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 8 - oktabr VI-44-8-4-66-K/21 Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tumani “Chiljivut”, “Xumo”, “Umakay”, “Qumdaryo” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tuzish to‘g‘risida.

“Chiljivut” mahalla fuqarolar yig‘inining 2020 yil 25 dekabrdagi 12/05-sonli, “Xumo” mahalla fuqarolar yig‘nining 2020 yil 4 dekabrdagi 12/12-sonli, “Umakay” mahalla fuqarolar yig‘nining 2020 yil 14 martdagi 3/1-sonli, “Qumdaryo” mahalla fuqarolar yig‘nining 2020 yil noyabrdagi 11-sonli bayonnomalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.Tumandagi “Chiljivut”,“Xumo”,“Umakay”, va “Qumdaryo” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tuzilsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining xulosasiga asosan yangi tuzilayotgan mahallalarga “Xalqabod”, ”Iftixor”, “Quchqorbuloq”, va “Dustlik” nomi berilsin.

3.Chiroqchi hokimi o‘rinbosari (Sh.Chorshanbiev), tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i (N.Nazarov), tuman Davlat xizmatlari markazi (B.Tog‘aev) va boshqa tegishli mutasaddilar bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4.Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Chorshanbiev), tuman IIB boshlig‘i (A.Beshimqulov) bilan birgalikda:

-mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga o‘zgartirishlar kiritish;

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga dumaloq muhr va tamg‘a yasash; mahalla fuqarolar yig‘inlariga INN raqami ochish uchun ruxsatnoma berish;

-mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

5.Tuman hokimi o‘rinbosarlari (U.Abdiraximov, Sh.Chorshanbiev) bilan birgalikda:

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nomi yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish;

-yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini ma’muriy bino va kerakli jihozlar bilan ta’minlash vazifasi topshirilsin.

6.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Maxmatqulov) yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etilayotganligi munosabati bilan mahalla fuqarolar yig‘inlari raisi, raisning obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha hamda oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimiga qo‘shimcha shtat birliklari kiritsin.

7.Tuman hokimi o‘rinbosari -Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (Sh.Chorshanbiev), tuman Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari (T.Safarov)ga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zaxirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

8.Tuman “Chiroqchi” gazetasi tahririyati (H.Egamberdiev) mazkur qarorni gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati xokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

9.Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan kuchga kirishi belgilansin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Халқ депутатлари Чироқчи туман
кенгашининг
2021 йил 8 октябрдаги
VI-44-8-4-66-K/21-сон қарорига
1-илова

Chiroqchi tuman "Qumdaryo" MFYning 2021 yil 1-iyul xolatiga ko‘ra aholi va xonadonlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	MFY nomi	01.01.2021 y jami axoli soni	Bulingandan keyin axoli soni	Shundan 02 yosh bolali oilalar	14 yosh bolali oilalar	Kam ta’minlangan
1	Qumdaryo	10080	7080	484	779	90
2	Dust		3000	205	317	35
Jami			10080	689	1096	125

Chiroqchi tuman "Chiljivut" MFYning 2021 yil 1-iyul xolatiga ko‘ra aholi va xonadonlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	MFY nomi	01.01.2021 y jami axoli soni	Bulingandan keyin axoli soni	Shundan 02 yosh bolali oilalar	14 yosh bolali oilalar	Kam ta’minlangan
1	Chiljivut	5658	3147	141	242	90
2	Xalqobod		2511	128	169	25
Jami			5658	269	411	115

Chiroqchi tuman "Xumo" MFYning 2021 yil 1-iyul xolatiga ko‘ra aholi va xonadonlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	MFY nomi	01.01.2021 y jami axoli soni	Bulingandan keyin axoli soni	Shundan 02 yosh bolali oilalar	14 yosh bolali oilalar	Kam ta’minlangan
1	Xumo	7029	3670	349	894	131
2	Iftixor		3359	373	998	153
Jami			7029	722	1892	284

Chiroqchi tuman "Umakay" MFYning 2021 yil 1-iyul xolatiga ko‘ra aholi va xonadonlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

№MFY nomi	01.01.2021 y jami axoli soni	Bulingandan keyin axoli soni	Shundan 02 yosh bolali oilalar	14 yosh bolali oilalar	Kam ta’minlangan
1 Umakay	5685	3248	165	552	50
2 Quchqorbuloq		2437	140	398	33
Jami		5685	305	950	83